O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ MAM1304-0093
2026-yil “ 28 ” 08
2026-yil _____

“TASDIQLAYMAN”
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti direktori
_____ J.D.Eltazarov
28 avgust

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANINING O‘QUV DASTURI

(kunduzgi ta’lim shakli 3-semestr)

Bilim sohasi:	500 000	- Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	530000	- Matematika va aniq fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60540100	- Matematika

Samarqand-2026

Mazkur o‘quv dasturi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti Kengashining 2026-yil 28- avgustdagi 01-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

Mazkur o‘quv dasturi **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti** Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining **“Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi”** kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 25 avgustdagi 01-sonli yig‘ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

J.S.Islomov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi assistenti, PhD.

Taqrizchilar:

A.A.Shernazarov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti, “Tojik filologiyasi va xorijiy sharq tillari” kafedrasi mudiri dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

A.J.Xo‘jamqulov – Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

1. Fan ma’lumotlari

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MAM1304	2026-2027	3	4

Fan/modul turi	Ta’lim tili	O‘quv rejadagi tartib raqami	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	60540100 –1304	4

Fanning nomi	Jami yuklama (soat)	Auditoriya mashg‘ulotlari jami – 48 soat, shundan:				Mustaqil ta’lim (soat)	Kurs ishi
		Maruza	Amaliy	Lab.	Sem.		
Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	120	24	24			72	0

2. Fanning mazmuni

Fanining maqsadi – “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanining maqsadi — talabalarda ommaviy axborot vositalari va raqamli media orqali tarqatilayotgan axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, ularning ishonchliligi va haqqoniyligini baholash, axborotdan samarali va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.Shuningdek, fan: axborotni izlash, saralash va tahlil qilish malakalarini rivojlantiradi, yolg‘on xabarlar (feyk axborotlar), manipulyatsiya va propagandani aniqlashga o‘rgatadi, media mahsulotlarini ongli ravishda qabul qilish va yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi, axborot xavfsizligi va internet madaniyati tamoyillarini o‘zlashtirishga yordam beradi, shaxsning media makondagi huquq va majburiyatlari haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Mazkur fanning asosiy maqsadi — media va axborot muhitida mustaqil fikrlaydigan, axborotni tanqidiy baholay oladigan hamda undan madaniyat va mas’uliyat bilan foydalana oladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Fanining vazifalari – Talabalarga media va axborot tushunchalari, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati haqida nazariy bilimlar berish, Axborotni izlash, to‘plash, saralash, saqlash va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, Turli manbalardan olingan axborotlarning ishonchliligi va haqqoniyligini baholashga o‘rgatish, Feyk xabarlar, dezinformatsiya, manipulyatsiya va propagandaning usullarini aniqlash malakasini rivojlantirish, Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qilish, Media mahsulotlarini tanqidiy qabul qilish va baholash madaniyatini shakllantirish. Axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning axloqiy-huquqiy me’yorlarini o‘rgatish, Media matnlarni yaratish, ulardan to‘g‘ri foydalanish va tarqatish ko‘nikmalarini rivojlantirish,

3. Fanni o‘zlashtirish uchun zarur boshlang‘ich bilimlar

1.	Ona tili va adabiyot
2.	Nutq madaniyati
3.	Informatika

4. Ta’lim natijalari (TN)

Kasbiy kompetensiyalar:

TN1	Talaba media makon, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya vositalarining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntira oladi;

TN2	Feyk xabarlar, dezinformatsiya, manipulyatsiya va propaganda usullarini farqlay oladi hamda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qiladi;
TN3	Internet va ijtimoiy tarmoqlardan samarali hamda mas'uliyatli foydalanadi;
TN4	Media mahsulotlarini yaratish va taqdim etishning asosiy tamoyillarini qo'llay oladi.
Ko'nikmalar:	
TN5	Mediasavodxonlik va axborot madaniyatining nazariy asoslarini biladi;
TN6	Media matnlarni tahlil qilish va ularga tanqidiy yondasha oladi;
TN7	Axborot almashinuvida axloqiy va huquqiy me'yorlarga amal qiladi;
TN8	Jamoada axborot bilan ishlash va samarali komunikatsiyani amalga oshirish ko'nikmalari shakllanadi

5. 2026/2027-o'quv yili 3-semestr uchun fan mazmuni va mashg'ulotlar shakli:		**Soat**
Ma'ruza (M)		**24**
M1	**Media savodxonlik va axborot madaniyatining tadrijiyligi hamda jamiyatdagi ahamiyati.** Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasining tarixiy-tadrijiy bosqichlari. Muloqot, ma'lumot va axborot tushunchasining uzviyligi va o'ziga xosligi. Media savodxonlik va axborot madaniyatining inson hayoti hamda jamiyatdagi o'rnining ma'naviy ehtiyojga aylanishi. Media savodxonlik va axborot madaniyati kommunikatsiya vosita sifatida va foydalanish metodlari. Xat (maktub) ilk axborot almashuv shakli. Pochta, gazeta, telegraf, jurnal va radio axborot manbai sifatida. Televidenie-davr taqozosi sifatida. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. Media savodxonlikning mazmun va mohiyati. Axborot madaniyati atamasi mazmun va moxiyati. Axborot olish va foydalanish metodlari. Media savodxonlik va axborot madaniyatining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. Xorijiy mamlakatlarning media savodxonlik va axborot madaniyatini qiyosiy taxlili. [1,2]	2
M2	**Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati.** Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun - mohiyati. Xabar, ma'lumot, bitim va shartnomalar. Ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallar. Axborot-inson hayotining ajralmas qismi. Axborot turlari: ijtimoiy va madaniy turmush, jamiyat siyosiy va iqtisodiy jarayonlar bilan uzviyligi. San'at, sport va ma'naviy hayot. Axborotning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendentsiyalari. Medialarning qadriyatlarga tayanishi va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Axborotlarning shaxs his-tuyg'ulariga ta'sir muammolari. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ta'sir kuchi. Media qadriyatlar. Axborotning ijtimoiy qatlamga ta'siri. Yangi O'zbekistonda fuqarolarning faollashuvida media va axborotni ahamiyati. Ommaviy axborot vositalarida axborot, ma'lumot (matn)lar bilan ishlash va uning ommaga ta'sirini belgilash. Axborotda adolat va xolislik printsiplari [2]	2
M3	**Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti.** Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televi-denie va internet jurnalistikasida o'zaro raqobat muhiti. Aholining axborotga bo'lgan ehtiyoji. Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muxiti. Matbuotda so'z va axborot olish erkinligi. Matbuot va ommaviy nashrlarda raqobat. Bloger va vaynerda kasbiy etiket. Axborot daromad manbaiga aylanishi. Axborotning inson	2
M4	muammolari. Kasbiy etiket va etikasi.[1,2] **Xorijiy ommaviy axborot vositalarini media zamondagi o'rni.** Bosma nashr: "The Times", "New Times", "Bloomberg", "Sabah". Radio: "Exa Moskvы", "TRT" va "Amerika ovozi" teleradio- kompaniyalarining axborotlari taxlili. T.Livettning "Garverd biznes rev'yu" maqolasi xaqida. Kenichi Omasning "Chegarasiz dunyo" asarining globallashuvdagi ahamiyati. "Olomoncha madaniyat" oqibatlari. Xozirgi globallashuv integratsiyalashuv, axborotlashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatining inson omiliga ta'siri muammolari. Jaxon axborot tarmog'ida fitna va ma'naviy xurujlar va ularning oqibatlari. [2,3]	2
M5	**Media maydon tuzilishi va ta'siri.** Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o'ziga xususiyatlari. Media maydonning shaxs va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. Media axborot yaratish va uni taxlili. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati. Media madaniyat. Media ta'lim. Global tarmoqlarning zamonaviy iskanjalari. Internet tarmoqlarining vujudga kelishi va maqsadi: "Odnoklassniki", "Telegram" "Fasebook", "Instagram", "Whatsapp" "Tik tok", "Youtube", "Twitter", "go-gulf.com", "Linkedn". [1,2]	2
M6	**Sun'iy intelektdan foydalanish va u yaratgan axborotlarni aniqlash usullari.** Sun'iy intelekt texnologiyalarinng imkoniyatlari imkoniyatlari, ulardan samarali foydalanish usullari hamda sun'iy intelekt tomonidan yaratilgan matn, rasm, audio va videolarni aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish. [3]	2
M7	**Media maydonda axborot tarqatish madaniyati.** Axborot maydonida ahloq va shaxs tushunchasi. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta'sir muammolari. Internet, virtu al va vizual olamning shaxsga ta'siri. "Kazino", "sport o'yinlari", "karta o'yini". Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi. Media maydonda vizual jozibadorlikning shaxs tasavvurida namoyon bo'lishi. Vizual olamda muloqot, sevgi va nikoh munosabatlari. Vizual kontentning ommaviyligi va ta'sir muammolari. Axborot almashinuvining mexanizmlari va ilmiy nazariy asoslari. Axborot almashinuvining madaniy-sotsial xolati va ahamiyati. [3]	2
M8	**Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy taxdidlar.** Axborotning shaxs va jamiyatga yo'naltirilganligi. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo'naltirilgan psixologik, diniy va madaniy taxdidlar. Milliy nizo turlari va taxdidlar. Axborot tizimida "falsifikatsiya metodi" (feyk)dan foydalanish. Axborot manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatini takomili. Ko'pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglik g'oyalariga tajovuz va taxdidlar. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining regulyativ funksiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, mezo, makro darajalari. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka taxdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalari. [2,3]	2
M9	**O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari.** Axborot almashinuvining milliy – mental, yosh, jins va hayotiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, ma'naviy va ruhiy zo'ravonlik. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari. Davlat siri, qonun bilan qo'riqlanadigan sirlar. Fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmati va obro'siga nisbatan dahl qilish. Giyohvandlik vositalari, psixotrop modda va prekursorlarni targ'ib qiluvchi saytlarga taqiq qilish xaqida ma'lumot berish. Prezident asarlari, farmonlari, xukumat qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida media savod-xonligi va axborot madaniyatini himoyalanishi. Xalqaro normalarda axboriy himoya. BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi. "Terrorizm,	2

	himoya. BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi. "Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi" kurash bo'yicha ShXT konsepsiyasi.[1,2]	
M10	**Virtual olam jozibadorligiga qaramlik va uning oqibatlari.** Komp'yuterga tobelikning to'rt bosqichi: moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta'siri, inson hayotining ajralmas bo'lagi sifatida. Internet va komp'yuter o'yinlarining paydo bo'lishi.Virtual tanishuvlar. Virtual o'yinlar –yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta'siri. Virtual olam va manipulyatsiya. Komp'yuter o'yinlarining ruhiy va jismoniy xatarlari. Virtual olamda o'zlikni namoyon qilish–"qaxramon"lik. Zo'ravonlik, faxsh va shafqatsizlikka undovchi o'yinlar: "Pubj", "Minecraft", "gta", "counter-strike", "Ever Quest", "Manhunt", Hilmiy Xidir Soriy "internet orqali bog'lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri" bo'yicha sosial so'rovi. [2]	2
M11	**Media maydon va internet imkoniyatlari.** Turli davrlarda axborot sohasi nazariyasi olimlarning asarlarida turli nomlar bilan paydo bo'lgan. K.Yung zamonaviy tasavvuflar tomonidan berilgan axborot maydonlarining ta'rifiga shubhali o'xshash bo'lgan "jamoaviy ongsiz" atamasini kiritdi. Har bir inson axborot maydonlari bilan o'ralgan va uning shakllanishi tug'ilish paytidan boshlab boshlanadi. Shunday qilib, ularning barchasi o'zlarining "ma'lumotlar bazasi" ga ega, bu esa inson hayotida sodir bo'lgan hamma narsani qayd qiladi. [1,2]	2
M12	**Ijtimoy tarmoq tushunchasi va uning jamiyat hayotiga ta'siri.** Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va u bilan bog'liq eng asosiy atamalr, ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lish tarixi, mashhur ijtimoiy tarmoqlar va ularning xususiyatlari hamda ularni jamiyat hayotiga ijobiy va salbiy ta'siri masalalari ko'tariladi. [1,3]	2
Amaliy mashg'ulot (A)		**24**
A1	Media savodxonlik va axborot madaniyati fanining maqsad va vazifalari	2
A2	O'zbekistonda umumiy media ta'limning o'rni va uning asosiy yo'nalishlari	2
A3	Media makonda milliy qadriyatlar va madaniy identitet	2
A4	Fakt-cheking va axborotni tekshirish usullari	2
A5	Virtual o'yinlarning yoshlar dunyo qarashidagi o'rni	2
A6	Axborot urushlari va media xavfsizlik. Dizinformatsiya, misinformatsiya va propaganda tushunchalari	2
A7	Internet makonida axloqiy va huquqiy me'yorlar	2
A8	Kiberjinoyatchilik va undan himoyalanish usullari	2
A9	Mediasavodxonlik va axbarot erkinligi	2
A10	OAV va ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiya usullari	2
A11	Global media makonda O'zbekiston imiji	2
A12	Mediasavodxonlikni oshirishda kitobxonlikning ahamiyati	2
6.	**Mustaqil ta'lim topshiriqlari**	**72**
1	Mediata'limning jahon ta'lim tizimida tutgan o'rni.	4
2	Metasavodxonlikning maqsad va vazifalari.	4
3	Chegarasiz axborot almashinuvi sharoitida mediata'lim, media savodxonlikning ahamiyati.	4
4	Post-haqiqat (post-haqiqat) davri va axborot ishonchliligi masalalari.	4
5	Axborotning buzulishi va geosiyosiy manfaatlar.	4
6	Ijtimoiy tarmoqlardagi mediaekologiyani barqarorlashtirish chora-tadbirlari.	4
7	Netiket.	4
8	"Mediasavodxonlik", "Axboriy savodxonlik", "Vizual savodxonlik"ning o'ziga xosliklari.	4
9	Raqamli agressiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari.	4
10	Raqamli agressiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari.	4
11	Zamonaviy mediaodatlar.	4
12	Global va milliy segmentda tarqatilayotgan axborotlarni tekshirishning zamonaviy usullari.	4
13	Diniy mavzudagi mediamahsulotlarni mediasavodxonlik rakursida tahlil qilish.	4
14	Dunyo mamlakatlaridagi mediata'lim taraqqiyoti.	4
15	Axborot manbalari nomarkazlashuvi ta'sirida dezinformatsiyalarning ko'payishi	4
16	Jamiyatning siyosiy qutblanishi va yolg'on axborotlarning ko'payish sabablari	4
17	OAVning istalgan turida axborotlarni fakt-analiz qilish	2
18	Yopiq axborot manbalari bilan ishlash.	2
19	Yolg'on axborotlarni identifikatsiyalash metodlari	2
20	Kiberxavfsizlik qoidalari.	2

7. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- Ma'ruzalar;
- amaliy, laboratoriya ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits-so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

8. Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

9. Talabala bilimini baholash mezoni

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;

- fan bo‘yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasawurga ega bo‘lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo‘nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo‘lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to‘liq va aniq bajargan bo‘lsa;
- barcha amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan bo‘lsa;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo‘llash olish;
- tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish.

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o‘quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo‘yicha berilgan savollarga to‘g‘ri javob bera olsa;
- fan bo‘yicha konspektini puxta shakllantirgan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;
- barcha amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa.

d) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘yilsa;
- fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;
- bayon qilish ravon bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo‘yicha matn puxta shakllantirilmagan bo‘lsa.

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:
- fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rilmagan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga doir hech qanday tasawurga ega bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajarmagan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha matnlarni boshqalardan ko‘chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo‘yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

10. Foydalanilgan adabiyotlar

	Asosiy adabiyotlar
1.	Я. Маматова, С. Сулайманова. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Тошкент. «Extremum-press», 2015.
2.	Б. Намазов, М. Файзиева, Ш. Шарофаддинов. Медиа ва ахборот саводхонлиги. Тошкент. Toshkent office, 2017.
3.	I.M.Karimov, N.A.Turgunov. Axborot xavsizligi asoslari. Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.
4.	
	Qo‘shimcha adabiyotlar
6.	Б. Умаров, М.Ахмедова. Очиқ ахборот тизимларида ахборот-психологик хавфсизлик. Тошкент. Chashma print, 2013.
7.	Muratova N., Grizl E., Mirzaxmedova. Jurnalistikada media va axborot savodxonligi. Toshkent: Baktria press, 2019.
8.	Bekmurodov M. Milliy mentalitet va rahbar ma’naviyati. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2003.
	Axborot manbalari
9.	http://www.zerkalo-nedeli.com
10.	http://www.pravoedelo.spb.ru
11.	vitaweb.jino-net.ru.
12.	www.journalism.ru
13.	http://www.zerkalo-nedeli.com

11. O‘QUV DASTURINING QIYOSIY TAHLILI

O‘quv dasturi xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida:
-_____ o‘rinni egallagan M.B.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Filologiya fakulteti (instituti) Jahon adabiyoti kafedrasi fani dasturi; - _____o‘rinni egallagan _____ universiteti_____ dasturlari tahlil qilinib, o‘quv dasturiga yangi ___ ta mavzular bilan boyitilib, _____ kabi yangiliklar kiritildi.

Xalqaro OTM dasturlariga linklar:
1. *https://forlit.philol.msu.ru/images/files/programmes/RPD_Rom_Germ_Kritika_Paksaryan*
2. *https://forlit.philol.msu.ru/images/files/programmes/RPD_Rom_Germ_Kritika_Panova*

Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi mudiri: Sh.A.Hasanov

Fanga mas’ul: J.S.Islomov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining aniq va tabiiy fanlar fakultetlari talabalari uchun tuzilgan "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fan dasturiga yozilgan

TAQRIZ

Mazkur fan dasturi zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida talabalarni media makonida mustaqil faoliyat yuritishga, axborotlarni tanqidiy tahlil qilishga hamda turli media manbalar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Fan dasturida fanning maqsadi, vazifalari, o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar aniq belgilangan. Mavzularning ketma-ketligi mantiqiy asosda tuzilgan bo'lib, mediasavodxonlikning nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi. Xususan, media matnlarni tahlil qilish, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat, feyk axborotlarni aniqlash hamda sun'iy intellektdan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Fan dasturida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uyg'unligi ta'minlangan. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan topshiriqlar talabalarning ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tavsiya etilgan adabiyotlar va elektron resurslar mavzularni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ayrim mavzularda xalqaro tajribaga oid amaliy misollar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biroq bu holat dastur mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fan dasturi amaldagi davlat ta'lim standartlari talablariga mos bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

A.A.Shernazarov, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining aniq va tabiiy fanlar fakultetlari talabalari uchun tuzilgan "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fan dasturiga yozilgan

TAQRIZ

Taqdim etilgan fan dasturi mediasavodxonlik va axborot madaniyati sohasida talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Dastur mazmunida axborot bilan ishlash madaniyati, media makonning zamonaviy tendensiyalari, axborot tahdidlari, kiberxavfsizlik va raqamli kommunikatsiya masalalari o'z aksini topgan.

Fan dasturining tarkibiy qismlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, unda fanning maqsadi, vazifalari, o'qitish natijalari, mavzular rejasi hamda baholash mezonlari to'liq yoritilgan. Mavzular mazmunining dolzarbligi va zamonaviyligi dasturning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlarda media materiallarni tahlil qilish, internet manbalari bilan ishlash, axborotlarning ishonchliligini baholash va sun'iy intellekt mahsulotlarini aniqlashga doir topshiriqlarning mavjudligi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Dasturda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati mavzularni o'zlashtirish uchun yetarli darajada tanlangan. Ayrim mavzular bo'yicha xorijiy ilmiy manbalarni yanada kengaytirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, mazkur fan dasturi ilmiy-uslubiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etiladi.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali dotsenti v.b. **A.J. Xo'jamqulov**

Matematika fakulteti o‘quv-uslubiy kengashi yig‘ilishining
9-bayonnomasidan
KO‘CHIRMA

Samarqand shahri. 2026 - yil 2-iyun

Qatnashdilar: o‘quv uslubiy kengash raisi, dots.A. Xurramov, 7 nafar kengash a’zolari.

KUN TARTIBI:

1.60540100-matematika ta’lim yo’nalishi talabalari uchun “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanining o‘quv dasturi (kunduzgi ta’lim shakli 3-semestr) ini o’quv jarayoniga qollashga tavsiya etish haqida.

ESHITILDI. Bu haqda kengash raisi, dots. A.Xurramov gapirdi: ushbu “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanining o‘quv dasturi oliy o‘quv yurtlarining “60540100- Matematika bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim oluvchi talabalar uchun mo‘ljallangan, unda mazkur ta’lim yo’nalishi o’quv rejasi va fan dasturidagi ““Mediasavodxonlik va axborot madaniyatiqamrab olingan.

SO’ZGA CHIQDILAR. Ushbu o‘quv dasturi haqida yana o‘z fikr-mulohazalarini kengash a’zolaridan dots. D. To’raqulov, O. Mirzayevlar ham bildirib, bu o’quv jarayoniga qollashga tavsiya etish taklifini kiritdilar.

QAROR QILINDI:

1.60540100-matematika ta’lim yo’nalishi talabalari uchun “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanining o‘quv dasturi (kunduzgi ta’lim shakli 3-semestr) ini o’quv jarayoniga qollashga tavsiya etilsin.

2.Ushbu qarorni tasdiqlashni Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti kengashidan so‘ralsin.

Fakultet o‘quv uslubiy kengash raisi: **A.Xurramov**

Fakultet o‘quv uslubiy kengash kotibi: **Q.Ostonov**